



Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 1-aprel, shanba,

39 (23.760)-son

KUN  
HIKMATI

Shukronalik - bu  
jim o'tir, gapirma,  
degani emas,  
imkoniyatga  
qarab hayotining  
yaxshilab bor,  
degani

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) [@zarnews\\_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

# KONSTITUTSIYA – MENIKI, SENIKI, BIZNIKI!

## YANGILANAYOTGAN KONSTITUTSIYADA INSON HUQUQLARI USTUVOR

Samarqand shahrida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) tomonidan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YeXHT)ning O'zbekistondagi loyihalari koordinatori hamda Samarqand viloyati hokimligi bilan hamkorlikda aholining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalardan xabardorligini oshirishga qaratilgan xalqaro davra suhbat o'tkazildi.

SAMARQAND SHAHAR 2023-YIL 30-MART



Unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati, Bola huquqlari bo'yicha vakil, Oliy sud, Konstitutsiyaviy sud, Bosh prokuratura, Ichki ishlar va Adliya vazirliklari, Samarcand viloyati hokimligi, Advokatlar palatasi, Toshkent davlat yuridik universiteti, bepul yuridik yordam ko'stishish bo'yicha "Madad" nodavlat notijorat tashkiloti vakillari, ta'lim muassasalar olimlari, ekspertlar, fuqarolik jamiyatni instituti vakillari, huquq himoyachilik va ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Davra suhbatida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) Feruza Eshmatova, YeXHTning O'zbekistondagi loyihalari koordinatori vazifasini bajaruvchi Xans-Ulrix Im, Oliy Majlis Senati a'zosi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflarni shakllantirish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha Konstitutsiyaviy komissiya a'zosi Rustam Xolmurodov, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining birinchisi o'rinosbasari Robaxon Mahmudova va boshqalar oldindiga referendum jarayonlari, Konstitutsiyadagi o'zgarishlar, qo'shimchalar haqida batafsil o'tkazildi.

Davra suhbatida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) Feruza Eshmatova, YeXHTning O'zbekistondagi loyihalari koordinatori vazifasini bajaruvchi Xans-Ulrix Im, Oliy Majlis Senati a'zosi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflarni shakllantirish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha Konstitutsiyaviy komissiya a'zosi Rustam Xolmurodov, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining birinchisi o'rinosbasari Robaxon Mahmudova va boshqalar oldindiga referendum jarayonlari, Konstitutsiyadagi o'zgarishlar, qo'shimchalar haqida batafsil o'tkazildi.

Targ'ibot tadbirdarlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ko'pchilik faqatgina huquq va erkinliklar haqida gapiriyapti, - dedi Rustam Xolmurodov. - To'g'ri, yangilanayotgan Bosch qomusimizda inson man-

faatlari oliy qadriyat sifatida e'tirof etilmoqda. Bunda yaqin yillarda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar qonuniy asosga ega bo'ladi. Shuni unutmasislik kerakki, huquq va erkinliklar bilan birga fuqarolik burchin ham unutmasislik kerak. Bugungi tadbirimizdan ko'zlangan asosiy maqsad "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning mazmun-mohiyati, uning Vatanimiz tarraqqiyoti, jamiyatimiz rivojigidagi ahamiyati va unga kiritilgan yangi normalarni keng jamoatchilikka to'g'ri va to'liq yetkazishdan iborat. Davra suhbatida ishtirot etayotgan mas'ullar jarayonning ushu hajitiga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Davra suhbatida yangilanayotgan Konstitutsiyani tayyorlash jarayonlari haqida ham ma'lumotlar berildi. Jumladan, jarayonda umumxalq muhokamasi orqali 220 mingdan ortiq taklif kelib tushgani va ularning aksariyati e'tibora olinishi bilan birga, xalqaro-huquq hujatlar va 190 dan ortiq davlat tajribasi o'rganilib, olti turdag'i ekspertizadan o'tkazilgan ma'lum qilindi.

Davra suhbatida davomida konstitutsiyaviy qonundan o'ren olgan inson va bola huquqlari, ijtimoiy davlat, odil sudlov, advokatlar faoliyati, ekologik masalalar, fuqarolik jamiyatlar bilan ishlash kabi qator muhim masalalar bo'yicha ma'ruzalar tinglandi.



## SAMARQANDDA QUYOSH PANELLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONASI TASHKIL ETISH TAKLIF QILINDI

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov Xitoy Kommunistik partiysi Markaziy qo'mitasini Siyosiy byurosi a'zosi, Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni Kompartiyasi Partoq'mi kotibi Ma Sinjuy boshchiligidagi XXR delegatsiyasi bilan uchrashdi.

Uchrashuvda Samarqand viloyati va Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni o'tasidagi o'zaro manfaatli amaliy hamkorlikni yo'nga qo'yish masalalari muhokama qilindi.

Jumladan, Erkinjon Turdimov Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni bilan o'zaro aloqalarini yanada rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqish maqsadida bir qator takliflarni bildirib o'tdi.

- Biz xitoylik tadbirdorlarni Samarqanddagi erkin iqtisodiy zonada mahalliy ishbilarmonlar bilan hamkorlikda ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishga taklif qilamiz, - dedi E.Turdimov. - Shuningdek, turizm sohasida aloqalar mustahkamlash, Samarqand va Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni o'tasida muntazam aviaqatnolari yo'nga qo'yish ikki tomon uchun ham

manfaatli bo'lismiga ishonamiz. Bugungi kunda muqobil energiya manbalariidan foydalishiga ehtiyoj oshib borayotganini hisobga olib, o'zaro hamkorlikda Samarqandda quyosh panellari ishlab chiqarish korxonasi tashkil etishga tayyormiz.

Ma Sinjuy viloyat hokimining takliflarini qo'llab-quvvatlashini bildirib, mazkur tashrif Samarqand viloyati va Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni bilan savdo, logistika, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, turizm va ta'lim sohalarida ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish uchun keng imkoniyatlar ochishini alohida qayd etdi. Xitoyning yetakchi kompaniyalari ishtirokida qayta tiklanuvchi energetika, transport infruzilmasini rivojlantirish, sanoat parklari va qishloq xo'jaligi klasterlarini tashkil etish sohalarida qo'shma loyihalarni amalga oshirishga xayrikholligini ta'kidladi.

O'z navbatida Ma Sinjuy Erkinjon Turdimovni ikki tomonlanma munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun Xitoya taklif qildi.

Uchrashuv yakunida Samarqand viloyati hokimligi va Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni o'tasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish yuzasidan memorandum imzolandi.

## 1 apreldan qonunchilikda nimalar o'zgaradi?

Har bir yangi kun jamiyat hayotiga yangi tartib-qoidalarni olib kelmoqda. Shu bois zamon bilan hamnafas bo'lish uchun qonunchilikdagi o'zgarishlardan doimiy xabardorlik talab etiladi.

Mazkur talabga ko'ra, aprel oyidan kuchga kiradigan huquqiy yangiliklar haqidagi ma'lumotlarni taqdim etamiz.

### Pensiya oshyapti

Prezident farmoni bilan 1 apreldan pensiya va nafaqalar miqdori 7 foizga oshiriladi.

### Katta tajribali pedagoglar majburiy attestatsiyaga jaib etilmaydi

Hukumat qaroriga asosan: pedagogik faoliyati bo'yicha 25 yil va undan ko'p ish stajiga ega bo'lgan pedagog xodimlar; yoshga doit pensiyaga chiqishi uchun 5 yilden ko'p bo'limgan muddat qolgan pedagog xodimlar majburiy attestatsiyaga jaib etilmaydi.

### Pensiya oluvchilar metrodan bepul foydalanaadi

Prezident qarori bilan Toshkent metropolining to'liq faoliyat ko'stishishi vaqtida davomida yosgora oluvchilariga bepul xizmat ko'sratiladi.

### Harakat tezligi soatiga 60 kilometrcha tushiriladi

Toshkent va Nukus shaharlarida hamda

### Pedagoglarning bazaviy tarif stavkari tenglashtiriladi

Prezident farmoniga ko'ra:

professional ta'lim muassasasi pedagoglarning bazaviy tarif stavkalari mos ravishda umumiy o'rta ta'lim muassasasi pedagoglarning bazaviy tarif stavkalari;

professional ta'lim muassasasi bиринчи va ikkinchi malaka toifasiga ega bo'lgan, malaka toifasiga ega bo'limgan oly ma'lumotli hamda oly ma'lumotga ega bo'limgan ishlab chiqarish ta'limi ustalarining bazaviy tarif stavkalari tegishinchasi umumiy o'rta ta'lim muassasasi bиринчи va ikkinchi malaka toifali o'qituvchisi, oly ma'lumotli o'qituvchisinisini hamda o'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchisinisini bazaviy tarif stavkalari tenglashtiriladi.

### Begilari aniq ko'rinishi turganda nogironlik fuqaro ishtirokisiz begilanadi

Nogironlik idoralararo elektron ma'lumotlar almashinuvni asosida nogironlik begilari aniq ko'rinib turgan, anatomik nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, noxush klinik prognoziga ega kasalliklar va asoratlarda fuqarolarning ishtirokisiz begilanadi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

### AMALDAGI KONSTITUTSIYADA

V bob. Umumi y qoidalar

#### 18-modda.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy maveqidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

#### 19-modda.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdir. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

#### 20-modda.

Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.



### KONSTITUTSIYAVIY QONUN LOYIHASIDA

V bob. Umumi y qoidalar

#### 19-modda.

O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro

huquqning umume'tirof etilgan normalariiga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Insonning huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli boladi.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy maveqidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklari ni himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin.

#### 20-modda.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o'zaro huquq va majburiyatlar bilan bog'liqdir.

Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdar shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmumini belgilaydi.

Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiga ta'sir choralarini mutanosiblik prinsipiiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak.

Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha zidiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.

#### 21-modda.

Har bir inson o'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega. Hech kimga uning roziqligisiz qonunchilikda belgilanmag'an majburiyat yuklatilishi mumkin emas.

Inson o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariiga putur yetkazmasligi shart.

Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklari ni himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin.



## Salohiyatlari kadrlar zaxirasiga kimlar kiritilgan?

Bugungi kunda har qanday davlatning taraqqiy etishida tabiiy resurslardan ko'ra, inson resurslarining o'rni beqiyosdir. Shu jumladan, davlat xizmatida ham rahbar va xodimlarning salohiyati mamlakat aholisining davlatdan rozi bo'lishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantrish agentligi tomonidan davlat organlari va tashkilotlarning rahbarlik lavozimlari zaxira kadrlar bazasi shakllantirishi kelgusida davlat boshqaruv organlari salohiyati va istiqbolli kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayoning ahamiyati jihat shundan iboratki, salohiyatlari kadrlar zaxirasiga kiritilgan nomzodlar faqtina ro'yxatda qolib ketmasdan, ularni kasib va shaxsiy yo'nalishda rivojlantrish ishlari amalga oshirilmoqda.

Miliy kadrlar zaxirasini shakllantirish va yuritish Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantrish agentligi tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Salohiyatlari kadrlar zaxirasiga ham ushbu yo'nalishda amalga oshirayotgan ishlarning mantiqiy davomidi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 4-avgust kuni Davlat xizmatini isloh qilish va boshqaruvda natijalarilni oshirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan kengaytirilgan video-selektor yig'ilishi mahallalardagi hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari va xotin-qizlar faollari orasidan uyqori natijalariga erishgan nomzodlarin maxsus bilim va psixodiagnostik test sinovlaridan o'tkazib, ular orasidan 1000 nafrani tanlab, salohiyatlari kadrlar zaxirasiga kiritish vazifasi belgilangan edi.

Bu vazifani bajarish maqsadida 2022-yilning sentabr-oktabr oyalarida viloyatdagi 1126 mahallalagi 3378 nafr hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari, xotin-qizlar faollari orasidan sektor rahbarlari va tuman (shahar) hokim o'rinnbosarlarining xulosalarini hamda "360" daraja so'rovnomaga natijalariga ko'ra, dastlab 456 nafr nomzod saralab olindi. Saralashning keyingi – test bosqichida 192 nafr nomzod saralanan olindi. So'nggi bosqich-suhbat natijalariga ko'ra, 120 nafr nomzod salohiyatlari kadrlar zaxirasiga kiritildi. Ulardan 90 nafrasi hokim yordamchilari, 24 nafrasi yoshlar yetakchilari, 6 nafrasi xotin-qizlar faollari hisoblanadi. 120 nafr nomzodidan 16 nafrasi ayollardir.

Salohiyatlari kadrlar zaxirasiga saralangan nomzodlarning kasibiy va shaxsiy kompe-

tensiylarini rivojlantrish maqsadida ular 6 oyga mo'ljalangan shaxsiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqdi. Ushbu shaxsiy reja ta'lim, amaliyat, ilmiy-iqdoy faoliyat, kitob mutolaasi kabi yo'nalishlardan iborat. Shaxsiy rejaning bajarilishi muntazam ravishda Davlat xizmatini rivojlantrish agentligi hududdy filiali tomonidan monitoring qilib boriladi.

Ish rejaga muvofiq, joriy yilning yanvar oyida zaxiraga olingan 120 nafr salohiyatlari kadrlar Davlat fuqarolik xizmatchilar uchun mo'ljalangan 50 soatlik masofaviy kurslarda o'qitilib, sertifikatlarga ega bo'ldi.

Nomzodlarning shaxsiy rivojlanish rejalariga ko'ra, har bir zaxira kadr o'zi belgilagan davlat idorasini va tashkiloti, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyatini organlari stajirovka o'tab, bilim, tajriba va ko'nikmalarini rivojlantrishi, kelgusi faoliyatini uchun foydali bo'lgan ma'lumotlarni olishi, birkirtirilgan amaliyat rahbarlaridan ish o'rganishi mumkin.

Davlat fuqarolik xizmatini raqamlashtirish ishlari jarayonida zaxira kadrlar bo'yicha ham alohida elektron platforma (zaxira.uz) ishlab chiqilib, joriy yilning fevral oyidan tajriba sinov tariqasida amaliyotga joriy etildi. Ushbu elektron platformada nomzodlar to'g'risida to'liq ma'lumot, ularning bilim testi, psixologik testlar, suhabat va KPI (reyting) natijalarini, kelgusida tavsiva etiladigan lava-zovimi, shuningdek, shaxsiy rivojlanish rejalarini va ularning bajarilishi elektron tarza kiritilib, monitoring qilib borilmoqda.

Zaxira kadrlarni o'qitish, malakasini oshirish, stajirovka o'tashi orqali tajriba orttirishi ularning kelgusida rahbarlik lavozimlari munosib kadr sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Yo'iga qo'yilgan tizim orqali endilikda kadrlar rahbarlik lavozimlariga to'satdan kelib qolishining oldi olindan, davlat boshqaruv organlari puxta tayyorgarlik ko'rgan, o'z ustida ishlaydigan, xalqni rozi qila oladigan yangi avlod kadrlari ishlaydi.

**Kurshid NAZAROV,**  
President huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantrish agentligi viloyat filiali rahbari.

## 1 apreldan qonunchilikda nimalar o'zgaradi?

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

### Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari uchun soliq imtiyozlari

Umumiy quvvati 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari o'nratgan jismoniy va yuridik shaxslar ushbu qurilmalari bo'yicha mol-mulk soliq'i, qurilmalar bilan band bo'lgan uchastkalar bo'yicha yer soliq'i hamda yuridik shaxslar tomonidan umumiy tarmoqqa sotgan elektr energiyasi uchun oлган foydasidan hisoblananidagi foysa soliq'inи to'lashdan ular foydalanshga topshirgan paytdan e'tibor uch yil muddatga, o'rnatalayotgan quyosh panellaring quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam bo'limgan quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimi bilan o'rnatilgan bo'lsa — o' yil muddatga ozod etiladi.

### Fermerlearning ishchilar uchun to'langan daromad soliq'i qaytariladi

2024-yil 1-mayga qadar eksperiment taraqasida respublika budgetidan paxta va (yoki) g'alla yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklariga ularning ishchilarining mehnatga haq bo'lash tarzidagi daromadlari bo'yicha to'langan jis-

moniy shaxslardan olinadigan daromad soliq'ini qaytarib berish tartibi joriy etiladi.

### Mualliflik huquqi kafolatlari kengayadi

Mualliflik huquqi ob'ektlarining elektron nazorat nusxalari majburiy tartibda mualliflik huquqi ob'ektlarining yagona bazasida saqlanadi.

«Intellektual mulk markazi» davlat muassasasi Yagona bazani yuritish, texnik ta'minlash hamda mualliflik huquqi ob'ektlarining elektron nazorat nusxalarni Yagona bazaga kiritish jarayonini muvofiqlashtirish bo'yicha mas'ul — operatori etib belgilanadi.

Shuningdek, 1 apreldan boshlab mualliflik huquqi ob'ektlarining elektron nazorat nusxalarni yagona bazada saqlash tartibi to'g'risidagi nizom kuchga kiradi.

### Parrandachilik subsidiya uchun elektron murojaat qilinadi

Parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, subsidiyalar ajratish va boshqa imtiyozlardan foydalanan huquqi faqatgina «my.vetgov.uz» saytidan ro'yxatdan o'tgan hamda belgilangan tartibdagi

mezonlarga mos keluvchi parrandachilik xo'jaliklariga beriladi.

### Halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolariga bиро'я'a beriladigan nafaqa miqdori harbiy xizmatchi maoshining 150 baravari miqdorida belgilanadi

Halok bo'lgan harbiy xizmatchi (xodim) oila a'zolariga bиро'я'a beriladigan nafaqa marhumning oxirgi egallagan lavozimi bo'yicha maoshi va harbiy (maxsus) unvon maoshi yig'indisining 150 baravari miqdorida;

harbiy xizmatchilarning (xodimlarning) davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi doirasida harbiy xizmatchi (xodim) halok bo'lganda to'lanadigan sug'urta summasi bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari miqdorida belgilandi.

### Davlat xaridalarida 20 foizlik kvota joriy etiladi

Jami daromadi 10 milliard so'mdan kam bo'limgan tadbirkorlik sub'ektlari uchun davlat xaridalarida 20 foizlik kvota joriy etiladi va ushbu xaridlar doirasida budget buyurtmachilar bilan tuziladigan shartnomalarda 50 foiz miqdorida oldindan to'lovni amalga oshirish nazarda tutiladi.

## Bu fakt!

**Viloyat bo'yicha  
aholi jon  
boshiga iste'mol  
mahsulotlari ishlab  
chiqarilishi o'rtaча  
459 ming so'm  
bo'lgan holda,  
Samarqand  
shahrida –  
944,2 ming  
so'mni, Jomboy  
tumanida –  
1235,9 ming  
so'mni, Toyloq  
tumanida –  
982,5 ming  
so'mni va  
Samarqand  
tumanida –  
688,5 ming  
so'mni tashkil etdi.**

## URGUTLIKlar FAQAT MASJID QURMAYDI



### MAKTAB VA SHIFOXONA TASHKIL ETADIGANLAR HAM KO'P

Ko'pincha davralarda urgutliklarning xayr-saxovat tadbirlari haqida gap ketsa, "masjid qurishga katta e'tibor berishadi, muqaddas qadamjolarni obod qilishga hamma birdekkissa qo'shadisi", degan gaplarni eshitamiz. Ayniqsa, tumanida o'n ming namozxonaga mo'ljalangan masjidning hashar yo'li bilan qurilgani ko'pchilikning hayrat va havasini keltirgandi.

Bu kabi xayrli ishlarning amalga oshirilayotgan yaxshi, albatta. Odamlar savolli amallarni bajarishiga intilsa, mahallalar obod bo'fadi, bir-biriga mehr-oqibati mustahkamlanadi.

Mayli, bu alohida mavzu. Aytmoqchi bo'lganimiz bugun tumanda xususiy bog'chalar, shifoxonalar ko'paydi, o'tgan yil bitta xususiy maktab ham ochildi. Yana bitta xususiy maktab tashkil etish bo'yicha harakatlar boshilanidi.

Yordam beriganlar ko'p bo'ldi, shu bilan birga, yana bir raqobatchi paydo bo'lyapti, deb yo'limdan qaytarishga uringanlar ham uchradi. Lekin tabiatim shunday oldimiga bir maqsad qo'ydimmi, unga erishish uchun har qanday qiyinchiliklarni yengishga harakat qilaman, bilmaganim o'rganishdan erimmayman.

Tadbirkorlikni ancha erta boshilaganman, maktabni bitirganimidan savdo sohasi bilan shug'ullandim. Dastlbirovlardan mol obid sotgan bo'simam, keyin Xitoydan o'zimiz obid keldik. So'ngra ishlab chiqarishga o'tdik. Payod va boshqa trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonamiz bor. Tibbiy markaz ochish harakatini boshlagach, bu ishlarni ukamga topsirdim. O'zim bor e'tiborimni shu ishga qaratdim.

Yangi tibbiyot markazi mehmomonadek, juda chiroyligi, ko'zga tashlanadigan qilib qurilib. Shuning uchun bu loyiha tashabbuskor – 31 yoshli tadbirkor Rustam Vahobovdan "Nima uchun mehmomonxona emas, shifoxona qurdingiz?" deb so'radim.

– Tadbirkorman, siz aytganigizdek, mehmomonxona yoki savdo markazi, ishlab chiqarish korxonasi qurib, bunga sarflagan pulimni qisqa vaqtida chiqarib olishim mumkin edi, – deydi R.Vahobov. – Ammo bemor odam va uning yaqnini darddan shifo topish maqsadida nechta eshkakka bosh suqib, kimdan qanday na-

jot kutishini yaxshi bilanigm, bunday holat o'zimizning ham boshimizdan o'tgani uchun ana shunday insonlarga yordamimiz tegsin, deb shu ishga qo'l urdim.

– Ota-onangiz yoki oila a'zolarigiz orasida shifokorlikni tanlaganlar bormi? – deyman Rustamning javobidan ko'nglim to'lgan bo'lsa-da, qiziqib.

– Yo'q, oilamizdan hech kim tibbiyot sohasiga aloqador emas. Shuning uchun xususiy shifoxona qurishni niyat qildim-u, uni amalga osirishda biroq qiyinchiliklarga duch keldim. Bilimgan sohangizda ishni boshlash oson emas-ku? Ayniqsa, shifoxonani qaysi yo'nalishida tashkil etish, qanday jihozlar olish kerakligi biroq o'yantir. Tanish vrachlar bor edi, ular bilan maslahatlashdim, xususiy klinika ochgan tadbirkorlar faoliyatini, tajribasini o'rgandim.

Yordam beriganlar ko'p bo'ldi, shu bilan birga, yana bir raqobatchi paydo bo'lyapti, deb yo'limdan qaytarishga uringanlar ham uchradi. Lekin tabiatim shunday oldimiga bir maqsad qo'ydimmi, unga erishish uchun har qanday qiyinchiliklarni yengishga intilsan. Dastlbirovlardan mol obid sotgan bo'simam, keyin Xitoydan o'zimiz obid keldik. So'ngra ishlab chiqarishga o'tdik.

Payod va boshqa trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonamiz bor. Tibbiy markaz ochish harakatini boshlagach, bu ishlarni ukamga topsirdim. O'zim bor e'tiborimni shu ishga qaratdim.

Bu binoni qurish ham oson bo'lgan emas. Ikki yarim yil oldin bu yer ochiq maydon edi. Atrofdagi xonadonlarda yashovchilar bilan kelishib, yo'q ochdim, alohida tabiiy gaz, elektr energiyasi tarmog'i tortib

– Jihozlarimizning aksariyati so'nggi avlod texnologiyalari hisoblani, – deydi tibbiy markaz bosh vrachi Xurshid O'rino. – Masalan, jigar xastaliklari to'g'ri tashxis qo'yish imkoniyatiga ega Fibroskan apparati tumanimizda boshqa muasasalar yuqorida. Shuningdek, multispiral kompyuter tekshiruv, raqamli rentgen, ultratovush tekshiruv uskulnalarining ham eng zamonaivilarini keltirilgan. Yaqin orada jarrohlik bo'limi ham faoliyat boshlaydi.

– O'zim tibbiyot sohasini yaxshi bilmaganim uchun yurtimizda va xorijda bo'ladigan tibbiy jihozlar ko'rgazmalardan mutaxassislar bilan birga borib qatnashdim, – deydi Rustam Vahobov. – Imkon qadar eng so'nggi rusumdagagi jihozlarni obil kelishga harakat qildik. Hali yana boshqa apparatlar obil kelmoqchimiz, chet eldan mutaxassis chaqiramiz, yangi loylighalarimiz bor. Bu yerga sarflagan pulim daromad berishiga hali ko'p vaqt borligini yaxshi bilaman, – deydi R.Vahobov. Hozircha topayotgan pulimiz xodimlar maoshiga, binoni saqlash xarat-jatlariga yetib tursha bo'ldi. Muhimi, odamlarga yordamimiz tegsa, bemorlar bizning shifoxonadan shifo topib ketsa, albatto, topganimizda baraka bo'ladi.

Mana shunday fikrdagi tadbirkorlar, o'z oldiga qo'yan maqsadlari sari dadil intiliadiq yoshlar ko'payatgani qanday yaxshi.

**G'olib HASANOV.**

## Samarqandda yana ikkita sanatoriq quriladi



O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining viloyat kengashi raisi o'rinnbosari Bekzod O'rolboyevning qayd etishi, kasaba uyushmalarining mehnat inspeksiyalari xodimlari tomonidan keyingi uch yilda 59 ta xat va murojaatlari ijobji hal etilgan. 240 nafr fuqaroga mehnatni muhofaza qilishga qo'shadisi olib munosabatlar yuzasidan huquqiy maslahat va tushuntirishlar berilgan.

Keyingi yillarda 125 ta ish o'rinnari mehnat sharoitlari bo'yicha baholanib, 699 ta korxona va tashkilotlarga mehnatni muhofaza qilish ishlari tizimli tashkil etish, xodimlar uchun munosib mehnat sharoitlarni yaratish, ishlak chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklarining oldini olish maqsadida amaliy yordam ko'satildi. 22 nafr fuqaroga sog'ligiga yetkazilgan shikast uchun oyma-oy to'lanishi lozim bo'lgan 60 million so'mdan yiz yil tovon pullari undirib berildi.

Barcha korxona va tashkilotlarda xodimlarga munosib mehnat sharoitlari yaratish hamda mehnat munosabatlariga oid normativ-huquqiy hujjatlariga



## DXX rahbari yoshlarning murojaatlarini eshitdi

Davlat xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi boshlig'i A.Axmedov yoshlar muammolarini hal etish va takliflarini eshitish maqsadida tumanlarda uchrashuvlar o'tkazmoqda. Ana shunday uchrashuvlarning galadigi Kattaqo'rg'on tumani va Kattaqo'rg'on shahrida bo'lib o'tdi.

Sektor rahbarlari va mutasaddi tashkilotlar mas'ullari ishtirokida o'tkazilan uchrashuvlarda 500 nafarga yaqin yoshlarning tadbirkorlik, ishta joylashish, sport bilan shug'ullanish uchun sharoit yaratish, kitobxonlik va kompyuter savodxonligi masalalari yuzasidan murojaatlari tinglandi.

Jumladan, Kattaqo'rg'on tumani "Omonboy ko'prik" mahalla fuqarolar yig'ini yoshlar yetakchisi Akbar Ahmedov tumanda yoshlar markazi qurish va uning qoshida turli to'garaklar tashkil etishni taklif qildi. Ushbu taklif mutasaddilar tomonidan ma'qallanib, amaliy yordam beriladigan bo'ldi.

Tumanning Namozpolvon mahallasida yashovchi Umarali Ermatov esa yoshlarga IT sohasini o'rnatish uchun 10 ta

kompyuter jamlanmasi so'radi va masala tez kundura hal etilishi ma'lum qilindi.

Kattaqo'rg'on shahrida o'tkazilan uchrashuvda ham yoshlarning murojaatlari bo'yicha chora-tadbirlar belgilanib, mas'ullar biriktirildi. Xususan, Zarafshon mahallasi yoshlar yetakchisi Jaloliddin Muzropovning mahallada zamonaviy sport maydonchasi qurish taklifi ma'qlangan bo'lsa, Qoriravot mahallasida yashovchi Dilshod Husanovga avtomashinalarni ta'mirlash uchun zarus asbob-uskunalar olib beriladigan bo'ldi.

Uchrashuv davomida yoshlarga yangilanayotgan Konstitutsiya bo'yicha 30-aprel kuni o'tkaziladigan referendum va uning mohiyati haqida tushuncha berildi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

"Barcha iymon-e'tiqodli mo'min-musulmonlarning orzusi bo'lgan bu muborak safarga borish har kim-ga ham nasib qilavermaydi. Buning uchun kimlardir misqollab pul yig'adi. Ayrimlar uchun bu orzu armonga ayanlib qoladi. Kutilmaganda ijtimoiy daftarlarda ro'yxtatda turadigan xo-nadonlar vakillarining armonga aylanishi mumkin bo'lgan orzusi ro'yobga chiqdi. Ular orasida men ham borligidan shukronalar keltiraman".

Bu gaplarni qutlug' Ramazon oyida muborak Umra ziyoratini ado etib qaytgan oqdaryolik Halima Boboqulova so'zlab berdi.

Darhaqiqat, viloyatimizdagi ehtiyojmand, shu bilan birga, ibratli oilarlар vakillaridan 100 nafara ga davlat tomonidan berilgan yo'llanma asosida muborak kundurada Umra ziyoratini amalga oshirish nasib etdi.

- Prezident Shavkat Mirziyoyevning 17 fevral kuni Buxoro viloyatiga tashrifi chog'ida O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Nuriddin Xoliqazarov kam ta'minlangan oilar vakillarini Umraga yuborishda davlat tomonidan yordam berilishini taklif qilgan edi, - deydi viloyat bosh

## Qutlug' oyda muborak Umra safari ado etildi



imom-xatibi Zayniddin Eshonqulov. - Davlatimiz rahbari bu iltimosni qanoatlantrir, adolati taqsimot qilib berilsa, yordam ko'rsatishga tayyorliklarni bildirganda. Ana shu tashabbus asosida viloyatimiz tuman va shaharlaridan aholi soniga qarab, 7-8 nafardan, jami 100 kishining ro'yxati shakllantiril-

di. Bunda ziyoratga boruvchilarning mahallada, el o'ttasida hurmat-e'tibor ozongani, muqaddas safarga borishga moddiy imkoniyati yetar emasligi va boshqa jihatlar e'tiborga olinadi.

Samarqandlik ziyoratchilardan tashkil topgan guruhlardan biri muborak safarini ado etib qaytdi.

- Bizni kutib olish, mehnomonxalarda joylashtirish va boshqa barcha xizmatlar a'lo darajada bo'ldi, - deydi Samarqand shahar So'zangaron mahallasida yashovchi Jangir Ibragimov. - Ramazon oyida ado etilgan Umra ziyorati muborak Haj amali bilan baroba bo'lishi mumkinligi, shuningdek, safar chog'ida tutilgan ro'zaning savobi katta ekanligidagi qalbimizda behisob shukronlik tuyg'ularini his qildik.

Ayni paytda samarqandlik ziyoratchilarning bir guruhi Madina va Makka shaharlarida Umra amallarini ado etmoqdalar.

Xayrullo SATTOROV, viloyat bosh imom-xatibi o'rinosbasari.

## Tarmoqqa noqonuniy ulangan "tadbirkor" fosh etildi

Kattaqo'rg'on shahrida DXX, prokuratura, IIB hamda shahar elektr tarmoqlari korxonalarini hamkorligida reyd tadbirlari o'tkazildi.

"Kattaqo'rg'onshargaz" gaz ta'minoti bo'limidan olingen ma'lumotga ko'ra, tadbirda shaharning Amir Temur mahallasida yashovchi fuqaro A.A.ga tegishli bo'lgan Ko'nadam mahallasida turarjoyda 3 ta ohak sexi tashkil etganligi aniqlandi. Tadbirkor sifatida ro'yxtidan o'tmasdan tashkil etgan mazkur sexlarda elektr energiyasi va tabiiy gazga noqonuniy ulangan holda foydalanim kelingan. Shuningdek, mazkur fuqaro Kattaqo'rg'on tumanidagi Go'zal mahallasida ham yana 2 ta turarjoy binosida 4 ta pech qurib, energiya manbalardan noqonuniy foydalangan.

Mazkur holatlar yuzasidan huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan surishtiruv tadbirlari davom etmoqda.

"Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali matbuot xizmati.



## YARIM ASRLIK KLINIKADA ENG ZAMONAVIY JIHOZLAR

Samarqand shahrida yarim asrga yaqin muddat davomida aholiga xizmat qilib kelayotgan, xalqimiz orasida respublika shifoxonasi nomi bilan mashhur Samarqand davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasi bugun zamonaviy tibbiyot jihozlar bilan ta'minlangan holda faoliyat yuritmoqda.



- Bugungi kunda klinikadagi 13 davolash-diagnostika bo'limlariда 750 nafar xodim mehnat qilmoqda, - deydi klinika direktori, tibbiyot fanari doktori, professor Nargiza Abdullayeva. - Bo'limlar bazasida SamDTUNing 17 kafedrasi joylashib, 150 nafardan ortiq professor-o'qituvchi ham nazariy, ham amalyish olib borishayotir. Har yili shifoxonaga 200 mingga yaqin bemor murojaat qilib, dava topadi. Nafaqat Samarqand, balki qo'shi viyotlar hamda respublikalardan bemorlarni qabul qilyapmiz. O'tgan yili 5500 nafar turli murakkablikagi operatsiyalar bajarilib, ularning 40 foizi laparaskopik usulda amalga oshirildi. Akusherlik va homiladorlik patologiyasi bo'limlari yiliga 3500 ta tug'ruq bo'ladи.

- Keyingi yillarda mamlakatimiz tibbiyot sohasiga yangiliklar jadallik bilan kirib kelmoqda, - deydi klinika direktori, ning davolash ishlari bo'yicha o'rinosbasari Kamol Said-murodov. - Xususan, o'tgan uch yil davomida klinika budget

va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan 97 dona hamda Quvayt arab iqtisodiy rivojlanish fondidan 22 birligidagi 74 ta zamonaviy apparatura xarid qilindi. Amerikanidan MRT uskunasi, Italiyanidan rentgenografik va rentgenoskopik uskunalar keltirildi. Shu bilan birga, organizmga yot jism kiritmasdan amalga oshiriladigan ionlashtiruvchi, nurli yuklamasidan bosh miya, bo'yin, oyoq va qo'l qon tomirlari angiografiyasi tekshirilish, tashxis qo'yildi. Yaqinda klinikamizda yuqori texnologiyali operatsiyalarni amalga oshirish uchun besh qavatlari jarrohlik bo'limi foydalanshga topshiriladi. Bu yerda jigar va buyrak transplantatsiyasi va boshqa operatsiyalar o'tkazish uchun barcha sharoitlar yaratilmoga.

Tohir NORQULOV,  
faxriy jurnalist.

Suratlarda klinika hayoti aks ettirilgan.

## UMUMIY YIG'ILISH O'TKAZILADI!

Oqdaryo tumanidagi "Oqdaryo ishlab chiqarish savdo" ma'suliyati cheklangan jamiyat (STIR: 200722891) ta'sisichilarining 2022-yil yakuni bo'yicha navbatdagи umumi yig'iliши 2023-yil 29-aprel kuni soat 11:00 da Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi, Navro'z ko'chasi, 17-uyda bo'lib o'tadi.

### KUN TARTIBIDA:

1. Boshqaruvenning 2022-yilgi hisoboti va kelgusi rejalarini to'g'risida;
2. Taftish komissiyasi hisoboti;
3. Jamiatning 2022-yilgi balansi, foyda va xarajatlarini hamda dividend miqdorini tasdiqlash;
4. Jamiat ta'sisichilarining arizalariga asosan ta'sis ulushlari qayta hisob-kitob qilib, arizalariga asosan ta'sisichilar safidan chiqarish, qolgan ta'sisichilarga jamiyat hisobida turgan ulushni taqsimlash, ta'sisichilar tarkibini qayta ko'rib chiqish;
5. Boshqa har xil masalalar.

### JAMIYAT MA'MURIYATI.

marhum Milusheva Aliye Xuseinovnaga (2022-yil 13-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahatov O'limas To'rayevich notarial idorasida marhum Niyazov Zoxir Davronovichga (2016-yil 24-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Past Darg'om tumanı Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Gafurova Baxiza Muxamedtayevnaga (2004-yil 13-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isqulova Dilsura Hasanovna notarial idorasida hamid Ibadov Abbosqa (2005-yil 23-aprel-da vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahatov O'limas To'rayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Past Darg'om tumanı Juma shaharchasi, Nodirbegim ko'chasi, 26-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Aminova Sharofat Raimovnaga (2019-yil 2-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Mirzayev Artikga (1998-yil 6-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'lli ko'chasi, 90-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida

\* \*

Nurobod tumanidagi "NUROBOD YU-

LOVCHI TAMIR" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 301616584) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

\* \*

Samarqand viloyat adliya boshqarmasi

sidan viloyat mini futbol (futzal) assotsiatsiyasiga 2015-yil 10-martda berilgan 84p-slonli davlat ro'yxitadan o'tkazilganlik

to'g'risidagi guvohnoma, assotsiatsiya ni-

zomi, dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Ro'za arab tilida "siyom" deb atalib, tiylmoqni bildiradi. Shariat istilohida esa "Ro'za tong otgandan quyosh botguncha niyat bilan ro'zani ochuvchi narsalaridan o'zini tiymoqdir. "Ramazon" so'zi arabchada issiqa kuyib yo'q bo'lish, jaziramada qovurilish kabi ma'nolarni anglatadi. Ya'ni, bu oyda muslimon bandalarning gunohlari kuyib, yo'q bo'lib ketadi.

Alloh taolo "Baqara" surasining 183-oyatida "Ey iymon keltirganlar! Sizlardan avvalgilarga farz qilganidek, sizlarga ham ro'za farz qilindi. Shoyadki taqvodor bo'lsangiz", deb ro'zaning farzini bildirdi.

Rasululloh sollallohu alayhi vasal-

## "Men ro'zadorman" deng



Iam bir qancha muborak hadisalarda Ramazon oyining ro'zasi farz ekanini ta'kilaganlar.

Abu Huraya roziyallohu anhu rivo-yat qilidi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bunday deganlar: "Ro'za do'zax o'tidan asrovchi vositadir!

Binobarin, ro'za tutgan kishi haqoratlari so'zlarni tilga olmasin, so'zlashganda baqirmsinas, bironvi maxsara qilmasin! Agar biror kishi ro'zador bilan urishsa yoki uni haqorat qilsa, ro'zador ikki bor "Men ro'zadorman", desin! Jonim qo'lida bo'lgan Zot - Allohga qasamki,

ro'zadorning og'zidan kelgan hid Al-lohning nazidda mushki anbardan ham xushbo'yroqdir. Chunki Alloh taolo "Ro'zador Meni deb yeb-ichmaydi va meni deb ro'za tutadi, binobarin, uning mukofotini o'zini beraman va har bir yaxshiligi evaziga mendan o'n barobar mukofot oladi", deydi.

Ramazon oyida jannat eshiklari ochilib, do'zax eshiklari berktililar ekan. Shaytonlar kishanband qilinib, Alloh taolonning rahmat farishtalari yer yuziga tusharkan. Ramazon oyining fazilatlaridan biri ro'za o'z sohibini do'zax o'tidan asrovchidir. Inson ro'za tutish bilan gunoh ishlardan saqlanishga harakat qildi. Ro'za insondagi shah-voni hirsni bo'g'ib turadi. Shuning uchun Rasul akram sollarollohu alayhi vasallam ro'za ibodatini "do'zaxdan asrovchi vosita" deganlar. Ro'za farz qilinishining asosiy hikmati bandalarda taqvo hosil qilish, muslimlarning

ma'naviy-ruhiy dunyosini poklashdir. Muslimmon odam yeb-ichishdan tiylib ro'za tutishining sababi Alloh taolonning amriga itoat va Uning rozili-giga erishish istagidir. Farishtalar muslim kishining har bir savob amalini yozib boradi, faqat ro'za mustasnodir. Chunki, uning savobi qanchaligini na inson va na farishtalar biladi. Bandalar qilgan boshqa xayrli, savobli ishlarda xolislik kamayishi yoki riyo alomatlar bo'lishi mumkin, ammo faqat ro'za amalida bunday holatlar bo'lmash ekan. Shu sababli Alloh taolo bandanoring ro'zasi savobini faqat O'zi bilishi va shunga yarasha mukofotini ham O'zi berishini aytди.

Muborak Ramazon oyi kelishi bilan bandalarga mana shunday ulkan savob-ajrlar eshigi ochiladi.

**Nodir QOBILOV,**  
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi.

## "Tong tarovati"

**Bobonor Nortojiev asli paxtachilik.**  
Tumandagi 9-maktabda o'qigan va matematika muallimi sifatida shu yerdan mehnat faoliyatini boshlagan.



### Yangi kitoblar


Payariqlik tumani azaldan o'zining fozzilari bilan mash-hur bo'lgan. Bu zamindan ko'plab shoirlar, yozuvchi va jurnalistlar, taniqli ijodkorlar yetishib chiqqan. Bugun tumanda ularning izidan borayotgan yoshlar ham ko'pchilikni tashkil etadi.



### Payariqlik yoshlar bayozi

Yaqinda ana shunday yoshlarning bayozi nashrdan chiqqdi. "Payariqlik g'unchalari" deb nomlangan she'riy to'plamidan tuman maktablarida tahlil oluvchi iqtidori yoshlarning mashqlari, chizgan rasmlari o'rinni olsin. Undagi she'rlarda ota-onasi, Vatanga muhabbat, maktab va ustozlarga hurmat madh etiladi.

Payariqlik bolalar shoiri Turg'un Hasanov mas'ul muharrirligida chop etilgan kitobni varaqlar eksansiz bolalik zavqini xotirlaysiz, ilhom olasiz. Bayozda o'z izini qoldirgan yoshlardan ham kelajakda yetuk ijodkorlar chiqishiga umid qilasiz.



**Islomjon QO'ChQOROV - asli samarqandlik.**  
Ishtixonning Bahrin qishlog'ida tug'ilib o'sgan.  
Ayni paytda Mudofaa vazirligi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti rahbari.  
"Seni izlayman" she'riy to'plami muallifi.



## Shanba. Metro...

Shanba. Metro. Biz uchrashar kun, Bir yilga cho'zilib ketar bir hafta. Quyosh qoraymaydi, oqarmaydi tun, Fursat imillaydi sen yo'q tarafda.

Shanba. Metro. Yana uchrashdik, Ogohlilik so'raldi har birimizdan. Toshqin qalbimizga qo'shilish toshdik, Ko'z uzmay ketardik bir-birimizdan.

Tutqichiga uzatgan qo'ling yetmasdi, "Meni quch, meni quch", derdi ko'zlarining.

Menda esa fagaqt jur'at yetmasdi, Quchmoqqa ijozat berdi ko'zlarining.

Ilk bora bag'rimga oldim o'sha on, Olov nima edi sening qarshingda. Quyoshning qizidek eding nurafshon, Menga joy bormidi ko'ngil arshingda.

... Shanba. Metro. Biz uchrashmadik, Qaylib ko'rolmadim oydin yuzingni. So'n chinga aylandi dildagi hadik, Tunlari axtardim oydan yuzingni.

Sensiz keng shaharda yurish ham malol, Sensiz bu vagonlar qandayn sovuq. Hijron, bag'ringni och, meni qarshi ol, Sadog'ing bo'sh bo'sa, ko'ksim to'la o'q.

Shu kech dunyoimni qorlar bosida, Qor urdim yuzimga qadring bilinib. Jonginam, hali ham yerning ostida Poyezd yurgan emish bag'ri tilinib.

### Daraxtlar

Sizning davrangizga yo'q menda bardosh, Soppa-sog' ko'ringan karlar, karaxtlar. Men o'zinga topdim yangi suhbatdosh,

Hasratim tinglaydi endi daraxtlar. Ha, ular jimgina osgancha qulog Gohida shovqinsiz tebranib qo'yar.

"Yelkadosh" do'stingam, ahvolimga boq, Yiqilsang, daraxtlar beminnat suyar.

Daraxtlar quyosha intilib o'sgan, Marra qilib olgan nurni, ziyoni. U tashlab moqchib bo'layotgandek Odamlari sulloh, ablah dunyon.

Uning xayollari ko'kka yetadir, Yulduzlar saylida yuradi xushhol. O, mash'um o'tmishim ta'qib etadir, - Men ketdim, yulduzim, xayr, yaxshi qol...

Daraxtlar - suhbati oromijonlar, Taskin axtarurman sizdan ehtimol. Boshimda tegimon aylangan onlar, Bir sizga yuqindim, qildim dardiloh.

Xo'rsindim, oh urdim va shunda sizning Angladim tashvishli titrog'ingizini. Men uchun har kuzda bandidan uzib Ko'yzoshdek to'kdungiz yaprog'ingizni.

Daraxtlar - suhbati oromijonlar... Islomjon QO'CHQOROV.

### Tush

Har kech tushlarim alag'da-jalag'da, Bosliqib har yonga yugurib, yelib, Goho cho'g' ustida yalang oyoqda O'yning tushaman maydonga kelib.

Goho bir xatodan to tongga doruv Tushimda ham uzoq chekaman afsus.

Yuragim, barini shamolga sovur, Demoqqa bir lazha topilmaydi so'z.

Goh tanam tor kelgan okopchalarda Ayoviz ezg'ilab o'tadi tankchi.

Yuragim tortilar likopchalarda Doodlab uyg'onaman, qo'limda sanchqil.

Umrinda hech qachon ko'mrangan g'ashlik, Qalibim his etmagan qop-qora qayg'u, Yashab o'tilmanagan qariya yosilch - Ortimdan shamoldeq quvlaydi:

Meni ta'qib etar shu zayl tushlar, Har tongda jiqa ho'k o'rpa-yostig'im. Agar bor bo'lsangiz, xabarchi qushlar, Ishoramdan taning, anglang tasdig'im.

Hech kim bosh suqmagay tanlov ishingga, Beso'roq kelaver, tortmagin mulzam.

Kimlar va nimalar kirgan tushimga, Nega sen kirmaysan, axir, azizam.

Islomjon QO'CHQOROV.

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 612 nusxada chop etildi. Buyurtma 194. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

**Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.**

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56**

**BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**

**MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.**

**Zarafshon**

**C АМРАКАНДСКИЙ ВЕСНИК**

**O'qing, qiziq**

## KULGI EYFORIYASI



Shifokorlar kulgi uzoq vaqt davomida eyforiyaga olib keladigan zararsiz dori ekantligini aytishadi. Va, uning "doza"si qanchalik yuqori bo'lsa, sog'liq uchun yaxshiroqdır.

Kulgi ozishga yordam beradi: olimlar kuniga 15 daqiqa kulish haftada uch marta 30 daqiqlik jismoniyan mashq o'rnnini bosishini hisoblab chiqdi.

Kulgi o'pkani mashq qildiradi. Kulgi jarayonida nafas olish faollashadi, barcha organlarning qon aylanishi kuchayadi, miyaga ko'proq kislordi quyiladi. Qondagi "kulgi seansi" dan so'ng immunitet uchun mas'ul bo'lgan hujayralar soni ortadi, organizm turli kasalliklarga kamroq chalinadi.

Ayrimlar ko'p kulish tufayli ajinlar paydo bo'ladi, deyishadi. Ammo mutaxassislar kulgi yuz mushaklarini mustahkamlaydi, terini sog'lam va yoshartiradi, deb hisoblaydi.

Mutaxassislarining fikricha, kulgi nafaqat salomatlik uchun foydali, balki ijodkorlikni 57 foizga, mehnat unumdorligini 54 foizga oshiradi. Shunday ekan, kuling-kuldiring, hazil-mutoyiba qiling.

**G.XOLDOROVA** tayyorladi.

## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

### 1-APREL

**Botirxon VALIXO'JAYEV** - (1932-2020). Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi.

**Nazokat ABDURAHIMOVA** - 1987-yilda Oqdaryo tumanida tug'ilgan. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi.

### 2-APREL

**Komila SUYAROVA** - 1995-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi.

### 3-APREL

**Mamarasul BOBOYEV** - (1911-1969) Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan, shoir.

### 4-APREL

**Hoji ULUG'OV** - (1933-2021) Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sog'iqliq saqlash xodimi.

**To'plovchi:**

**Tog'aymurod SHOMURODOV.**

**Navbatchi muharrir:**


**A.SHERXOLOV.**

**Navbatchi:**

**Y.MARQAYEV.**

**Sahifalovchi:**

**B.ABDULLAYEV.**



ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda